



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна	111

REZERVGA BO'SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNI FUQAROLIK HAYOTIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASINING NAZARIY-METODOLOGIK TAHLILI (CTP DASTURI MISOLIDA)

Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasini
boshlig'ining o'rinbosari, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning harbiy karyeradan fuqarolik hayotiga o'tish davridagi ijtimoiy-psixologik reintegratsiya muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda harbiy muhitdan fuqarolik jamiyatiga moslashish jarayonidagi kasbiy identiklik inqirozi, ijtimoiy dezadaptatsiya va rolli nizolarning yuzaga kelish qonuniyatlari Buyuk Britaniyaning "Kasbiy o'tish bo'yicha sheriklik" (CTP) dasturi misolida psixologik jihatdan ochib berilgan. Xalqaro tajriba tahlili asosida sobiq harbiy xizmatchilarning xizmat muddati, sog'lig'i va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga tabaqalashtirilgan hamda majmuaviy psixologik ko'mak ko'rsatish tizimining metodologik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: harbiy intizom, yopiq ijtimoiy muhit, stressogen omillar, psixologik burilish, dezadaptatsiya, ijtimoiy rollar tizimi, kasbiy reorientatsiya, ijtimoiy-psixologik reintegratsiya, ruhiy jarohat, moliyaviy savodxonlik, uzoq muddatli rejalashtirish.

Abstract: This article analyzes the problems of socio-psychological reintegration of military personnel discharged into the reserve during their transition from a military career to civilian life. Using the example of the UK's "Career Transition Partnership" (CTP) program, the psychological mechanisms behind the emergence of professional identity crises, social maladaptation, and role conflicts during the transition from a military environment to civil society are explained. Based on the analysis of international experience, the study highlights the methodological foundations of a differentiated and comprehensive psychological support system for former military personnel, taking into account their length of service, health status, and social needs.

Key words: military discipline, closed social environment, stress factors, psychological turning point, maladaptation, social role system, career reorientation, socio-psychological reintegration, psychological trauma, financial literacy, long-term planning.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы социально-психологической реинтеграции военнослужащих, уволенных в запас, в период их перехода от военной карьеры к гражданской жизни. На примере британской программы "Партнерство по профессиональному переходу" (СТП) с психологической точки зрения раскрыты закономерности возникновения кризиса профессиональной идентичности, социальной дезадаптации и ролевых конфликтов в процессе адаптации из военной среды в гражданское общество. На основе анализа международного опыта освещены методологические основы системы дифференцированной и комплексной психологической поддержки бывших военнослужащих с учетом их стажа службы, состояния здоровья и социальных потребностей.

Ключевые слова: военная дисциплина, закрытая социальная среда, стрессогенные факторы, психологический перелом, дезадаптация, система социальных ролей, профессиональная реориентация, социально-психологическая реинтеграция, психическая травма, финансовая грамотность, долгосрочное планирование.

KIRISH

Harbiy xizmat faoliyati o'ziga xos qat'iy harbiy intizom, yopiq ijtimoiy muhit va yuqori stressogen omillar bilan tavsiflanuvchi faoliyat turi bo'lib, shaxsda o'ziga xos harbiy subordinatsiya va kasbiy identiklikni shakllantiradi.



Harbiy xizmatdan qurolli kuchlar rezerviga bo'shatilish va fuqarolik hayotiga reintegratsiya bo'lish harbiy xizmatchi hayotidagi keskin psixologik burilish nuqtasi hisoblanib, bu davrda shaxs jiddiy ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya va rolli nizolarni boshdan kechiradi. Ko'p yillik harbiy kasb stereotiplaridan voz kechish va mutlaqo boshqa qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatiga reintegratsiya jarayoni nafaqat kasbiy reoriyentatsiyani, balki shaxsning ijtimoiy rollar tizimini tubdan qayta qurishni talab etuvchi murakkab psixologik fenomendir.

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi faqatgina ish topish bilan cheklanib qolmay, balki moliyaviy mustaqillikni anglash, yangi uy-joy sharoitlariga ko'nikish, oilaviy munosabatlarni qayta tiklash va jamiyatda o'z ijtimoiy maqomini qayta belgilash kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi.

Ushbu o'tish davrida tizimli ravishda tashkil etilmagan psixologik va institutsional ko'mak shaxsda ijtimoiy begonalashuv, kelajakka nisbatan xavotir va depressiv holatlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning psixologik ehtiyojlarini individual tashxis qilish va ularga moslashish davrida oila a'zolarini ham jalb qilgan holda majmuaviy ko'mak ko'rsatish zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi tomonidan muvaffaqiyatli joriy etilgan "Kasbiy o'tish bo'yicha sheriklik" (CTP) dasturi bu boradagi jahon tajribasining eng ilg'or namunalaridan biridir. Ushbu dastur harbiy xizmatchilarni xizmat muddati va sog'lig'ining holatidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan va ko'p tarmoqli (seminarlar, moliyaviy va uy-joy bo'yicha yo'riqnomalar) tarzda fuqarolik jamiyatiga integratsiya qilishning psixologik mexanizmlarini namoyish etadi.

Mazkur xorij tajribasini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish va uning metodologik asoslarini o'rganish, milliy armiyamiz tizimida rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli reintegratsiyasining milliy psixologik modelini ishlab chiqish uchun yuqori nazariy va amaliy dolzarblilik kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiya qilish masalasi xorijiy psixologiya va harbiy sotsiologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarda harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o'tish davrida yuzaga keladigan identiklik inqirozi, ijtimoiy moslashuv muammolari hamda psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida o'rganilgan.

Amerikalik olim N. A. Schlossberg o'zining tranzitsiya nazariyasida shaxs hayotidagi keskin o'zgarishlar davrida moslashuv jarayoni individual resurslar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va vaziyatni baholash omillariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, kasbiy faoliyatning yakunlanishi yoki yangi ijtimoiy maqomga o'tish davrida psixologik yordam ko'rsatish moslashuv samaradorligini oshiradi.

J. M. Castro va S. M. Kintzle tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sobiq harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvi ko'p qirrali jarayon sifatida baholanib, unda bandlik, oilaviy munosabatlar, ruhiy salomatlik va ijtimoiy aloqalarning muhim o'rin tutishi asoslab berilgan. Tadqiqotchilar reintegratsiya muvaffaqiyati kompleks yondashuv va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadilar.

M. Demers harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o'tish jarayonini "madaniy transformatsiya" sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, harbiy muhitda shakllangan qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor stereotiplarining fuqarolik jamiyati talablariga moslashtirilishi sobiq harbiy xizmatchi uchun murakkab psixologik sinov hisoblanadi.

Rossiyalik tadqiqotchilar A.G.Karayani va Yu.P.Zinchenko harbiy xizmatchilar psixologiyasi bo'yicha olib borgan ilmiy ishlarida harbiy faoliyatning shaxs psixikasiga ta'siri, stress omillari va xizmatdan keyingi moslashuv muammolarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida psixologik monitoring va doimiy konsultativ yordam reintegratsiyaning muhim omili sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham harbiy xizmatchilarning moslashuv jarayonlari o'rganilgan. Jumladan, G'.Z.Ikmatullayevning ilmiy ishlarida harbiy xizmatga va xizmat faoliyatiga psixologik moslashuvning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilib, ijtimoiy muhitning moslashuv jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Buyuk Britaniyaning "Career Transition Partnership" (CTP) dasturi faoliyati hamda sobiq harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tizimli yondashuv asosida umumlashtirilib, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga reintegratsiya qilishning samarali yo'llari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Britaniya Qurolli kuchlarida Ahdnoma mavjud bo'lib, u qurolli kuchlar tarkibida xizmat qilgan yoki xizmat qilayotganlar va ularning oilalari, shu jumladan, boquvchisini yo'qotganlarning oila a'zolariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini tan oladigan va'dadir ^[1].

Ushbu hujjatga ko'ra, Buyuk Britaniya Qurolli kuchlarining barcha a'zolari, amaldagi harbiy xizmatchi yoki zaxiradagi bo'lsin, ularning oila a'zolari davlat va tijorat xizmatlarini ko'rsatishda boshqa fuqarolarga nisbatan hech qanday kamchilikka duch kelmasliklari kerakligini nazarda tutadi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada faxriylar reintegratsiyasini amalga oshirishda harbiy xizmat bilan bog'liq jismoniy va ruhiy jarohatlarni davolash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga reintegratsiyasiga ko'maklashuvchi dastur ^[2] asosida ularni ish bilan ta'minlash, faxriylar uchun ID-kartalar joriy etish kabi salmoqli amaliy chora-tadbirlar ko'riladi ^[3].

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga reintegratsiyasiga ko'maklashuvchi dastur harbiy xizmat faoliyatidan fuqarolik mehnat faoliyatiga, ta'limni davom ettirishga yoki rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilarga har tomonlama shaxsiy ko'mak beradi. Dastur - Birlashgan Qirollik Mudofaa vazirligi va insonlar hamda jamiyat hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishga ixtisoslashgan davlat xizmatlari ko'rsatuvchi Reed in Partnership kompaniyasi o'rtasidagi sheriklik kelishuvidir. CTP harbiy xizmatdan bo'shatilayotgan shaxslarga fuqarolik hayotiga moslashish uchun har tomonlama shaxsiy ko'mak va resurslar taqdim etadi. Mazkur tizim o'tgan 25 yil davomida 310 000 dan ortiq harbiy xizmatchini qo'llab-quvvatlagan. Fuqarolik hayotiga moslashish - Mudofaa vazirligi tomonidan CTP orqali rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyoz bo'lib, undan ko'zlangan yagona maqsad - ularning yangi ish joyi, ta'limga qaytish yoki pensiyaga chiqish orqali fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli o'tishlariga yordam berishdir ^[7].

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga reintegratsiyasiga ko'maklashuvchi dastur harbiy xizmatchilarning qancha staj bilan rezervga bo'shatilishidan kelib chiqib, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Asosiy moslashish dasturi** (Core Resettlement Programme - CRP) - ushbu dastur 6 yildan ortiq xizmat qilgan harbiy xizmatchilarga mo'ljallangan bo'lib, uning amal qilish davri harbiy xizmatdan bo'shatilishdan 2 yil oldin boshlanadi. Harbiy xizmatni tark etayotganlar bo'shatilishdan oldin moslashish tadbirlarini amalga oshirish uchun 35 kungacha Bosqichli moslashish vaqtiga (Graduated Resettlement Time - GRT) huquqlidirlar. Kunlar soni xizmat muddatiga bog'liq. 50 yoshdan oshgan va 30 yildan ortiq xizmat qilganlar moslashish jarayonini ertaroq boshlash huquqiga ega bo'ladi. CRP tomonidan qo'llab-quvvatlash xizmatdan bo'shatilgandan keyin yana 2 yil davomida mavjud bo'ladi.
2. **Ishga joylashishni qo'llab-quvvatlash dasturi** (Employment Support Programme - ESP) - ushbu dastur 4 yildan 6 yilgacha xizmat qilgan harbiylarga mo'ljallangan bo'lib, undan harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilishdan 2 yil oldin va bo'shatilgandan keyin 2 yilgacha bo'lgan davrda foydalanish mumkin bo'ladi.
3. **"Kelajak ufqlari" dasturi** (CTP Future Horizons for Early Service Leavers - ESL) - 4 yillik harbiy xizmat muddatini to'ldirmasdan turib rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur orqali qo'llab-quvvatlash harbiy xizmatdan bo'shatilgandan keyin 2 yil davomida taqdim etiladi.
4. **"Ko'mak" dasturi** (CTP Assist Programme for Personnel on Recovery Duties) - sog'lig'ini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan alohida dastur bo'lib, u sog'lig'ini tiklash va fuqarolik karyerasiga o'tishda jiddiy qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelayotgan boshqa harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. Dasturdan foydalanish xizmat muddatidan qat'i nazar ta'minlanadi.

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli reintegratsiyasi aniq maqsadlar, ekspertlar maslahati hamda to'g'ri resurs va imkoniyatlardan foydalanishni talab etishi tabiiy holat sanaladi. Shu boisdan, harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilar CTP tomonidan taqdim etilayotgan yordamdan unumli foydalanishlari juda muhim, degan qarash mavjud.

CTP rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ishonchli reintegratsiyasiga yordam berish bilan birga, ularning xizmatdan keyingi yo'nalishlari (ish, ta'lim yoki pensiya bo'lishidan qat'i nazar) o'z ko'nikmalari, bilimlari, tajribalari va intilishlariga mos kelishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu xizmatlar Buyuk Britaniyadagi 10 ta Mintaqaviy moslashish markazida, shuningdek, Oldershot shahridagi maxsus qurilgan moslashish obyektlarini o'z ichiga olgan yetakchi Moslashish o'quv markazida amalga oshiriladi.

CTP ko'magi bir qator ekspertlik shaxsiy maslahat va yo'riqnomalar, o'quv kurslari, raqamli vositalar, moslashish tadbirlari va maxsus saralangan bo'sh ish o'rinlaridan foydalanish imkoniyatini o'z ichiga oladi.



CTP asosida taklif etiladigan 8 ta asosiy imkoniyat va xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **CTP seminarlari.** Ushbu seminarlar rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga mavjud qo'llab-quvvatlash tizimlari haqida atroflicha tushuncha berish orqali reintegratsiya jarayonini boshlashga yordam beradi. Bu esa rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning o'z kelajagi haqida aniq va asosli qarorlar qabul qilishiga turki bo'ladi. Seminarlar davomiyligi va mazmuni talab hamda ehtiyojga qarab farqlanadi. Qatnashchilar yoshi va unvoni bo'yicha yoki aralash guruhlariga bo'linishi mumkin.

CTP seminarlari tarkibida jami 5 ta kurs mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- a) Kasbiy o'tish seminari - CTP va raqamli platforma bilan ikki kunlik tanishuv, o'zgarishlarni boshqarish bo'yicha qo'llanma, moslashishni rejalashtirish, ko'nikmalarni xaritalash, ishga joylashish faoliyati va fuqarolik hayoti haqida amaliy ma'lumotlar jamlanadi.
 - b) Kengaytirilgan kasbiy o'tish seminari - CTPning 5 kunlik kengaytirilgan shakli bo'lib, undan foyda ko'rishi mumkin bo'lgan harbiy xizmatchilarga (odatda CTP "Ko'mak" dasturidan foydalanuvchilar uchun) qo'shimcha yordam va mutaxassis ko'magini taqdim etadi.
 - d) Ishga joylashishni qo'llab-quvvatlash seminari – harbiy xizmatchilarni fuqarolik ish qidirish jarayoniga tayyorlash uchun muayyan bandlikka oid yordam va faoliyatni qamrab oluvchi bir kunlik kurs sanaladi.
 - e) Tadbirkorlik asoslari seminari - CTP nomidan "X-Forces Enterprise" tomonidan o'tkaziladigan bir kunlik kurs. U biznes boshlashning asosiy elementlarini va bu borada qanday yordamlar mavjudligini aniqlashni qamrab oladi.
 - f) Rezervga bo'shatilishga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma - rezervga bo'shatilishga tayyorgarlik ko'rish, jumladan, rejalar tuzish, ko'ngillilik (volonterlik), ta'lim va sayohat imkoniyatlaridan foydalanish, ijtimoiy o'zgarishlarni rejalashtirish va shaxsiy moliyani boshqarish bo'yicha bir kunlik kurs hisoblanadi.
2. **CTP reintegratsiya bo'yicha maslahatlar.** Maslahatchi yoki kurator tomonidan ko'rsatiladigan yakka tartibdagi (maxsus) yordam hisoblanadi. Ular harbiy xizmatchilarga maslahat va yo'riqnomalar beradi hamda ularning shaxsiy reintegratsiya rejasini (Personal Resettlement Plan) ishlab chiqishga ko'maklashadi. Shuningdek, ularga to'g'ri keladigan imkoniyatlarni topishda va yo'lda uchraydigan har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi.
 3. **CTP O'quv kurslari.** Ushbu kurslar harbiy xizmatchilarga tijorat darajasida tan olingan malaka sertifikatlarini olish va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Boshqa kurslar esa pensiyaga yoki tadbirkorlikka o'tayotganlar uchun juda mos keladigan amaliy hayotiy ko'nikmalarni taqdim etadi. Barcha CTP kurslari shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lib, Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi "Birinci navbatda CTP" tamoyilini ilgari suradi. Bu shuni anglatadiki, kasbiy ta'lim olish huquqiga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar tashqi kurslarga murojaat qilishdan oldin, mavjud bo'lgan CTP kurslaridan (shartnomaviy yoki shartnomadan tashqari moliyalashtiriladigan) foydalanishlari lozim bo'ladi.

Shartnomaviy moliyalashtiriladigan kurslar Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi tomonidan oldindan to'lab qo'yiladigan va iqtisodiy jihatdan eng foydali kurslar hisoblanadi. Shartnomadan tashqari kurslar IRTC, ELCAS mablag'lari yoki shaxsiy mablag'lar hisobidan to'lanadi.

CTP o'qitish yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ishga joylashish va hayotiy ko'nikmalar - bepul kunduzgi va onlayn seminarlar hamda vebinarlar harbiy xizmatchilarga fuqarolik mehnat bozoriga ishonch bilan kirib borishga yordam beradi. Kurslar rezyume tuzish, suhbatdan o'tish texnikasi, moliyaviy va pensiya rejaları, tadbirkorlik va networking (aloqalar o'rnatish) mavzularini qamrab oladi.

Ichki kasbiy malaka oshirish - harbiy xizmatda orttirilgan malakani oshirish yoki yangi kasbga qayta tayyorlanish uchun Mintaqaviy markazlarda va Oldershotdagi RTC markazida keng turdagi kurslar taklif etiladi. Ular qurilish, muhandislik, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, IT, transport va logistika, boshqaruv (menagement), pedagogika, elektrotexnika, qayta tiklanadigan energiya va tadbirkorlik ko'nikmalari kabi sohalarni qamrab oladi.

Tashqi kasbiy malaka oshirish - harbiy xizmatchilar Mudofaa vazirligining "Ma'qullangan yetkazib beruvchilar" ro'yxatidagi yoki undan tashqaridagi fuqarolik o'quv tashkilotlari orqali ham o'zlari tanlagan ta'limni olishlari mumkin.

4. **CTP tadbirlari.** Har yili mamlakat miqyosida o'tkaziladigan 9 ta CTP Ish bilan ta'minlash ko'rgazmalarida bepul ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rgazmalarda rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni ishga olishga xayrixoh bo'lgan yuzlab saralangan ish beruvchilar qatnashadi. CTP shuningdek, ish beruv-

chilar bilan muntazam ravishda Ochiq eshiklar kunlari va vebinarlar tashkil etishi e'tiborga molik jihat sanaladi.

- 5. CTP raqamli platformasi.** Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchi istalgan vaqtda va istalgan joyda CTP raqamli platformasi orqali ko'plab onlayn reintegratsiya vositalari va resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular tizim ichidagi tavsiyalar orqali foydalanuvchiga moslashtiriladi. Bunga shaxsiy moslashish paneli, Ish portali, onlayn ta'lim, mehnat bozori sharhlari, suhbat simulyatori, rezyumelar ombori va jonli qo'llab-quvvatlash chati kiradi.
- 6. CTP Ish portali.** "Reed in Partnership" kompaniyasi Buyuk Britaniya bo'ylab odamlarni ish beruvchilar bilan bog'lashda 25 yildan ortiq tajribaga ega tashkilot hisoblanadi. Ularning ekspertlar jamoasi "Qurolli Kuchlar bandlik xayriya tashkiloti" bilan hamkorlikda sobiq harbiy xizmatchilarga sifatli va mos keluvchi bo'sh ish o'rinlarini taqdim etadi.
- 7. CTP moliyaviy yo'riqnomalari.** Harbiy xizmatchilar uchun moliyaviy savodxonlik, uzoq muddatli rejalashtirish, soliqlar, pensiya va nafaqalar bo'yicha maslahatlar beriladigan bir kunlik mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar ushbu mashg'ulotlarga o'z turmush o'rtoqlarini ham olib kelish huquqiga ega. Moliyaviy yo'riqnomalar "Forces Pension Society" va "Lester Brunt" bilan hamkorlikda o'tkaziladi.
- 8. CTP uy-joy yo'riqnomalari.** Ushbu yo'riqnomalar harbiy xizmatchilar uchun fuqarolik uy-joylari, ijara va uyga egalik qilish, shuningdek, buning moliyaviy oqibatlarini haqida ma'lumot olishga yordam beradigan bir kunlik mashg'ulotlardan iborat. Uy-joy yo'riqnomalari "Mudofaa o'tish xizmatlari" bilan hamkorlikda taqdim etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot va Buyuk Britaniyaning CTP dasturi tahlili shuni ko'rsatadiki, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga reintegratsiyasi shunchaki texnik yoki iqtisodiy jarayon emas, balki shaxs identikligi (kasbiy kimligi) va ijtimoiy rollar tizimini tubdan qayta qurishni talab etuvchi murakkab psixologik fenomendir.

Harbiy muhitdan fuqarolik jamiyatiga muvaffaqiyatli o'tish harbiy xizmatchining nafaqat bandligini ta'minlash, balki uning moliyaviy, uy-joy va oilaviy munosabatlardagi yangi ijtimoiy statusga psixologik moslashishi, kelajakka nisbatan xavotirlarini kamaytirish va ichki shaxsiy inqirozlarni yengib o'tish darajasi bilan belgilanadi. Tabaqalashtirilgan va shaxsga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik ko'mak tizimi sobiq harbiy xizmatchilarning dezadaptatsiya va begonalashuv xavfini keskin kamaytiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Xalqaro tajribaning nazariy-metodologik tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy armiyamiz tizimida rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga reintegratsiyasining kompleks psixologik modelini yaratish zarur.

Bunda rezervga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchilarning xizmat muddati va sog'lig'i holatidan kelib chiqib, ularni bosqichma-bosqich reintegratsiya qilish, oila a'zolari ishtirokida moliyaviy-huquqiy savodxonlik mashg'ulotlarini o'tkazish va kasbiy reorientatsiya davrida doimiy psixologik kuzatuv (monitoring) olib borish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv nafaqat harbiy xizmatchilarning shaxsiy xotirjamligini ta'minlaydi, balki ularning boy tajriba va salohiyatidan fuqarolik jamiyati rivoji yo'lida samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Statutory Guidance on the Armed Forces Covenant Duty Covering the United Kingdom Issued under section 343AE(1) of the Armed Forces Act 2006 November 2022 <https://www.armedforcescovenant.gov.uk/>.
- Guidance Career Transition Partnership /<https://www.gov.uk/guidance/career-transition-partnership>
- THE ARMED FORCES COVENANT ANNUAL REPORT 2024 / Summary. <https://www.gov.uk/government/publications/armed-forces-covenant-annual-report-2024>
- Ikmatullayev G'.Z. Adaptatsiya jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. - Toshkent, 2023. - №3(8). - B. 102-106.
- Ikmatullayev G'.Z. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy xizmatga moslashishidagi qiyinchiliklar bo'yicha nazariy yondashuvlar // Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. - Toshkent, 2024. - №3. - B. 143-147.
- Ikmatullayev G'.Z. Ijtimoiy muhit harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga psixologik moslashuvchanligida dinamik omil sifatida // Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. - Toshkent, 2025. - №1. - B. 86-90.
- <https://www.gov.uk/guidance/career-transition-partnership>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.